

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'ri 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'ri 16

FALSAFA

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erk fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlarini 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn A'zamning ontologik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'ri 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'ri 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'ri va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K:1:008:323.6 (575.1)

YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOIYILLARI**ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ: НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ****NATIONAL AND UNIVERSAL PRINCIPLES OF ENHANCING THE SPIRITUAL CULTURE OF YOUTH****Mamanov Jamoliddin Abduraximovich** 

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar, yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish yo'llari, vositalari hamda ustuvor yo'nalishlari, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlar va ularning natijalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yoshlar ma'naviy madaniyatidagi bugungi o'zgarish, bu o'zgarishlarning salbiy va ijobiy tomonlari, ushbu ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda milliy madaniyat xususiyatlarini hisobga olish hamda umuminsoniy madaniyat namunalari bilan muloqot madaniyatini shakllantirish borasidagi ustuvor vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются факторы, влияющие на духовную культуру молодежи, пути и средства её повышения, а также приоритетные направления в этой сфере. Рассматриваются практические меры, предпринимаемые руководством нашей страны, и их результаты на основе статистических данных. Кроме того, в статье обсуждаются современные изменения в духовной культуре молодежи, их положительные и отрицательные аспекты, а также важность учета национальных культурных особенностей и формирования культуры диалога на основе образцов общечеловеческой культуры.

Abstract

This article analyzes the factors influencing the spiritual culture of youth, the ways and means of its enhancement, as well as priority directions in this field. It examines the practical measures implemented by the country's leadership and their outcomes based on statistical data. Additionally, the article discusses contemporary changes in the spiritual culture of youth, their positive and negative aspects, the importance of considering national cultural characteristics in its development, and the formation of a culture of dialogue through interaction with examples of universal culture.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviy madaniyat, madaniyat, milliylik, milliy qiyofa, mentalitet, ijtimoiy xarakter, milliy madaniyat, umuminsoniy madaniyat.

Ключевые слова: молодежь, духовная культура, культура, национальная идентичность, национальный облик, менталитет, социальный характер, национальная культура, общечеловеческая культура.

Key words: youth, spiritual culture, culture, national identity, national image, mentality, social character, national culture, universal culture.

KIRISH

Yoshlar alohida ijtimoiy guruhligi ko'pgina tadqiqotlarda ta'kidlanadi. Shundan kelib chiqib yoshlar ma'naviy madaniyati ham jamiyatning alohida sohasi deb hisoblash mumkin. Mazkur ma'naviy madaniyat jamiyatning tarixan shakllangan ma'naviy madaniyat namunalari bilan yangi yaratilgan ma'naviy madaniyat namunalari o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi va millatning yangi qiyofasini yaratib beradi. Shu o'rinda tadqiqotchi olimlar N.Nazarov, A.Shopulatov, O.Ochilovlar milliy qiyofa xususida quyidagi fikrlarni bildiradi. «Milliy qiyofa millatning real mavjud va idrok etish mumkin bo'lgan belgilaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi xalqning butun tarixi bilan uzviy bog'langandir. Qiyofaning ilk namunalari millat vujudga kelmasdan oldinroq vujudga kela boshlagan. Milliy qiyofaning ayrim belgilari etnosning hamma tarixiy birliklari – urug', qabila va elatlarga xos. Milliy qiyofa qandaydir bir omil ta'sirida vujudga kelmaydi, balki bunda ikki omil o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omilni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, ikkinchisini esa muayyan xalq yashab turgan tabiiy sharoitning xususiyatlari tashkil etadi.» [1, 122 b.] Bu erda kishilar ruhiy qiyofasining tashqi

ifodalari ikkinchi omil bilan uzviy bog'langandir. Negaki, ikkinchi omil o'zining konkretligi, tabiiy yakkaligi bilan yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

TAHLIL VA METODLAR

Oxirgi 6 yil davomida yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Shu jumladan, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari joriy etilib, ular bilan ishlashning vertikal tizimi yaratildi hamda yoshlar muammolarini bevosita mahallaning o'zida hal etish imkoniyati yaratildi.

Bunda, respublikaning eng chekka qishloqlarida ham yoshlar etakchisi lavozimi joriy etilib, respublika bo'yicha shijoatli 9 309 nafar xodimlarning faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ularning asosiy vazifalaridan biri etib, yoshlar bilan tizimli ishlash, huquqbuzarlikka qo'lgan urganlarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish va moslashuviga ko'maklashish belgilandi.

Mamlakatimiz erishgan yutuqlar haqida gapirganda, biz O'zbekistonning barqaror rivojlanishining asosi va tayanchi farovon hayot, o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi anglash uchun qulay sharoit, milliy totuvlik va birdamlik ekanligini unutmasligimiz kerak. Konsensus va milliy birlik davlat taraqqiyotiga yordam beradigan barqaror va mustahkam asos bo'lib, aynan shu narsa hokimiyatni rivojlanishning strategik manbasiga aylantiradi. Insoniyat tarixi ko'rsatganidek, do'stlik, totuvlik va barqarorlikni saqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlar va millatlar vakillarining do'stligi va totuvligini saqlash doimiy sa'y-harakat va mehnatsyevarlikni talab qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda birlik va totuvlikni himoya qilishning asosi - bu milliy munosabatlarning oqilona va sinovdan o'tgan siyosatidir. Mamlakatimiz uchun o'sha og'ir, mustaqillikni tiklash yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov siyosiy qarorlarni qabul qilishda uzoqni ko'rganligini ko'rsatadi. Bu inson birinchilardan bo'lib tinchlik va milliy birlik g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi va targ'ib qiladi.

O'zbekiston mustaqil bo'lganiga boshqa rivojlangan mamlakatlar tarixiga nisbatan ko'p bo'lmadi. Lekin, shu vaqt ichida jamiyatimizni har sohada rivojlanishi uchun huquqiy asoslar yaratildi, mustaqil iqtisod va sanoat tamal toshi qo'yilib, ma'lum rivojlanish bosqichiga olib chiqildi. Shubhasiz, bunday tub o'zgarishlar odamlarning o'zini anglashi va o'ziga xosligini, shuningdek, davlatning milliy siyosatida o'z aksini topdi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda global dunyoda tiklanish bosqichida bo'lgan O'zbekiston fuqarolarining birligi alohida ahamiyatga ega. Dunyo miqyosidagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va dunyodagi tub o'zgarishlar sharoitida, mamlakatning ustuvor yo'nalishlari o'zgarib, o'zaro bog'liqlik yanada oydinlashib borayotgan bir paytda, O'zbekistondagi milliy birlik mamlakatimiz tashqi siyosatining kafolatidir.

Millatlararo munosabatlarda yaxshi va qulay muhit nafaqat bizning jamiyatimiz, balki barcha davlatlar barqarorligining asosidir. Milliy birlik biz uchun juda qimmatli yutuq, xalqimiz farovonligining asosiy sharti va sevimli Vatanimiz taraqqiyoti va ravnaqi uchun ishonchli poydevordir. Shunday ekan, har bir o'z-o'zini anglagan vatanparvar insonning vazifasi - bu milliy birlikni bebaho marvarid va juda qimmatli yutuq sifatida saqlash va uni boshqa milliy muqaddas narsalar qatori hurmat qilishdir. Milliy birlik g'alaba va baxtning ramzi sifatida o'zbek xalqiga yangi kuch va quvvat bag'ishladi, mamlakatning har bir aholisining qalbida farovon va tinch kelajakka umid olovini yoqdi.

Ma'naviy madaniyat har bir xalq, millat yoki elatni milliy xavfsizlik holati bilan birligi va bog'lanishida tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu jamoat ongining barqarorligini belgilaydigan umumiy yoki universal madaniyatlardir. Qadriyatlar va axloqiy me'yorlar tizimi zamonaviy jamiyatda shaxslar va aholi guruhlarining xatti-harakatlarini belgilaydi. Xose Ortega-i-Gasset polietnik davlatdagi birlik masalasini o'rganishga alohida e'tibor qaratib, «milliy birlik bu avvalo etnik va polietnik guruhlar o'rtasida yaqin aloqalarni o'rnatishdir. Agar millatning ertangi kun dasturi bo'lsa, u mavjud bo'lishi va shakllanishi mumkin»[2, c. 704] deb ta'kidlaydi. Ortega-i-Gasset, shuningdek, bu bilan biz xalqning o'tmishnigina emas, balki kelajakni ham himoya qilayotganimizni qo'shimcha qiladi.

Har bir jamiyat o'z a'zolari ideallari va ehtiyojlariga, shuningdek, ushbu turdagi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan qadriyatlar tizimini ishlab chiqadi. O'zbek xalqi madaniyatining strategik jihatdan muhim boyligi - bu xalqimizning uzoq yillik rivojlanish tarixi davomida shakllangan, o'zbeklarning yagona millat sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini va o'ziga xosligini aks ettiruvchi an'anaviy ma'naviy qadriyatlardir.

FALSAFA

Har qanday jamiyat barqaror faoliyat yuritish, ya'ni yashab qolish va o'z an'alarini davom ettirish maqsadida ekan, eng avvalo o'zini moddiy jihatdan ta'minlay ola bilishi kerak. Barqaror iqtisodiyotga ega bo'lgan, ya'ni zamonning ilg'or mamlakatlari bilan iqtisodiy jihatdan bema'lol bellasha oladigan mamlakat aholisining o'z milliy va ma'naviy qadriyatlarini yo'qotib qo'yish xavfi bo'lmaydi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir»[3] deb bejizga ta'kidlamaydi. Aksincha, iqtisodiyoti to'la shakllanmagan, eng zarur tirikchilik vositalarini ham chetdan xarid qilishga majbur bo'lgan jamiyat birinchidan, moddiy jihatdan qashshoqlashishda davom etadi. Chunki tashqi iqtisodiy savdodagi nomutanosiblik tufayli mamlakat har yili milliardlab pul mablag'idan - oltin zaxirasidan mahrum bo'ladi. Ikkinchidan, zaif, ya'ni to'la shakllangan iqtisodiyotning yo'qligi milliy ma'naviyatning barqarorligiga putur etkazadi. Chunki biz yuqorida bir necha o'rinlarda ta'kidlab o'tganimizdek milliy mentalitet hamda milliy ma'naviyatning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil shu jamiyatga xos bo'lgan moddiy ishlab chiqarish usulidir.

Uchinchidan, mamlakat iqtisodi qanchalik zaif bo'lsa aholi shuncha qashshoq va kambag'al bo'ladi. Qashshoq va kambag'al xalq bolalari – yoshlari esa boy bolalariga taqlid qilishga moyil bo'ladilar. Bugun ba'zi bir yoshlarimizda G'arb madaniyatiga mahliyo bo'lish, o'z madaniyatimizga esa bepisand qarash hollari uchrab turishi hech kimni ajablantirmay qo'ygan. Buning sababi yuqorida aytilgandek G'arb mamlakatlarining ishlab chiqarishda, binobarin boylik masalasida ham bizdan beqiyos darajada o'zib ketganligidir.

Demak, yoshlar madaniyatida ro'y berayotgan ba'zi salbiy hodisalarning tub ildizi jamiyat iqtisodiyotining zaifligidir. Yoshlarimiz madaniyatida ro'y berayotgan ba'zi bir salbiy xususiyatlarga qarshi kurashish faqatgina og'zaki yoki yozma targ'ibot-tashviqot bilan chegaralanib qolishi mumkin emas. Balki iqtisodiyotimizni har tomonlama yuksaltirish va uni rivojlangan jamiyatlar qatoriga olib chiqish va bu ishda yoshlar ishtirokini ta'minlash, yoshlarning yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy vositasidir.

Mustamlakachilar har turli yo'llar bilan bizning iqtisodiyotimizni zaiflashtirishga, xalqimizning iqtisodiy zakovati va tashabbusini bo'g'ishga, O'rta Osiyoni Rossiyaning xomashyo bazasiga aylantirishga urindilar va bunga ma'lum darajada erishdi ham.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda iqtisodiyotimizni o'nglash, sanoatni rivojlantirish yo'lida ma'lum ishlar qilingan bo'lsa-da, ammo birinchidan bu ishlar etarli darajada izchil amalga oshirilmadi, ikkinchidan esa mustamlakachilar turli yo'llar bilan sobiq mustamlakalari taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lishga harakat qildilar.

Yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish haqida gapirar ekanmiz, avvalo butun jamiyatimizning madaniyatini yuksaltirmasdan turib bunga erishib bo'lmashligini unutmasligimiz lozim. Jamiyat ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda bir qancha omillar muhim o'rin tutadi. Mana shu omillarning barchasini hisobga olgan holda harakat qilingandagina biz ko'zda tutilgan natijalarga erisha olamiz.

Biz yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida har qancha jon kuydirmaylik, har qancha tadbirlar rejalashtirmaylik iqtisodiyot nochor bo'lsa, yoki sovet davridagidek iqtisodiyotning oyog'i osmondan qilib qo'yilsa, tadbirbozlik bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Sog'lom iqtisodiyotning asosi esa bizning fikrimizcha zamonaviy sanoatlashgan ishlab chiqarishdir. Sanoatlashgan ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy sharti esa tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilishidir. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarga chek qo'yish, tekshirishlarga maratoriylar e'lon qilinishi, davlat idoralari faoliyatining shaffofligiga erishish yo'lidagi harakatlar o'z samarasini bermozda. Ammo yuqorida aytilganidek, nazorat ustidan nazorat o'rnataverish, ta'qiqlash, cheklash bilan katta natijalarga erishib bo'lmaydi. Bu yo'lida mamlakatimiz rahbariyatining yosh tadbirkorlarga katta imkoniyatlarni yaratish borasida amalga oshirayotgan ishlar e'tiborga loyiqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5088 son «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi» qaroriga muvofiq, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etiladi. Mazkur jamg'arma bugungi kunda 100 dan ziyod yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida amaliy ishlar tashkil etdi.[4]

Bizning fikrimizcha taraqqiyotning bosh omili jamiyat tabaqalari o'rtasidagi, davlat va jamiyat o'rtasidagi manfaatlar uyg'unligiga erishishdir. Yuqorida aytilganidek, jamiyat qatlamlari o'rtasida, davlat xizmatchilari-mansabdorlar bilan jamiyat o'rtasida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash borasida

ilk, ammo muhim qadam tashlandi. Avvalgi paytlarda davlat xizmatchilari qanday ishlayotganlaridan qat'iy nazar belgilangan miqdorda oylik olar edilar. Mahalliy boshqaruv tizimi boshliqlari, hokimlar qo'lida yaxshi ishlayotgan xodimni moddiy rag'batlantirish imkoni yo'q edi. Bugungi kunda belgilangan rejadan ortiqcha jamg'arilgan byudjet turmushning teng yarmi mahalliy byudjet ixtiyorida qoldirilishi va hokimlarga berilgan vakolatga muvofiq yaxshi, samarali ishlayotgan xizmatchilarga oylik maoshining 300 % gacha ustama haq belgilanishi davlat xizmatchilarining o'z ishiga sidqidildan yondashuviga olib kelmoqda. Demak, guvohi bo'layotganimizdek keyingi yillarda hukumat va davlat rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jamiyatimiz iqtisodiyotining sog'lomligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Sog'lom iqtisodiyot esa ta'kidlaganimizdek jamiyat ma'naviyati sog'lomligining, xususan yoshlar ma'naviyatidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishning asosiy vositasidir.

O'zbekistonning ma'naviy madaniyat sohasidagi davlat siyosatining eng muhim strategik maqsadi milliy birlik va fuqarolar totuvligi bo'lishi kerak. O'zbekistonning haqiqiy milliy birligi va fuqarolik totuvligi ko'p asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlarning umumiy tushunchasi asosida tiklanadi. Ulardan eng muhimi milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va Vatanga muhabbatdir. Bugungi kunda o'zbek xalqi shuni yaxshi biladiki, davlat va milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, hayot sifatini oshirish va ajdodlar zaminining obodligi, avvalo, o'z-o'zini bilish va vatanparvarlikning rivojlanishiga bog'liqdir.

O'zbekiston davlat siyosati ushbu qadriyatlarni tiklash, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak va ushbu g'oya mamlakatimiz qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Majlisi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida aniq aks etgan. Shuningdek, O'zbekiston hukumati har doim yoshlarning ijodiy tashabbuslari va takliflarini qo'llab-quvvatlaydi va ularni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu g'amxo'rliklarga javoban o'spirin va yoshlarimiz barcha kuchlarini o'rganish, zamonaviy kasblar va hunarmandchilikni tanlash, ajdodlar yurtining obodligi va taraqqiyoti, Vatanni himoya qilish, ilm-fan va texnika va ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirishlari kerak.

Jamiyatning barcha qatlamlari vakillari faolroq bo'lishlari, konstruktiv tashabbuslar ko'rsatishlari, davlat ramzlari, milliy ziyoratgohlari va mustaqillik yutuqlarini himoya qilishi, O'zbekistonning siyosiy va ijtimoiy hayotida iliq qo'llar va ijodiy kuch bilan qatnashishi, milliy xavfsizlik va vatanparvarlik sharafigi himoya qilishi kerak. Yoshlarimiz qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zlarining Vatanlari bilan birga bog'liqligini yuqori his qilishlari kerak.

Ma'naviy madaniyat bugungi kunda milliy va xalqaro xavfsizlikning eng muhim strategik omili va kafolati hisoblanadi. Ma'naviy madaniyatning yangi tizimini ishlab chiqish jamiyatimizdagi ma'naviy bo'shliqni yo'q qiladi va mamlakatimizni rivojlantirishning to'g'ri yo'lini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda milliy g'oyani baholashda fuqarolarning huquqlari va erkinliklari va milliy manfaatlarini himoya qilishga ustuvor ahamiyat berish, milliy g'oyani o'zbek xalqining normal va sog'lom hayotiga singdirish, milliy manfaatlarni shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yish muhimdir. Buning sababi shundaki, jamiyatning o'qimishli qatlamlari milliy g'oya, milliy o'ziga xoslik va o'z-o'zini anglash, yosh avlodni ijtimoiylashuvini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bu jamiyatning yaxlitligi va ichki birligini himoya qilishning ichki talablariga asoslanadi. Mamlakatimizda millatlararo va dinlararo ayirmachilikni qo'zg'atish konstitutsiyaga zid jinoyat hisoblanadi.

Jamiyatimizdagi mavjud muammolar bugun paydo bo'lib qolmagan, albatta. Xalqimiz salkam bir yarim asrlik qaramlik azoblarini o'z boshidan kechirdi. Bu vaqt davomida mustamlakachilar xalqimizni tilidan, ma'naviy va milliy qadriyatlaridan judo etishga harakat qildilar. Ming shukurki, ularning bu niyatlari to'la ro'yobga chiqmadi. Chunki bizning asrlar, balki ming yillar sinovidan o'tgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, o'ta bardoshli xalqimizning olijanoblighi bilan yo'g'rilgan fe'l-atvori bunga yo'l qo'ymadi. Xalqimiz ana shu og'ir yillar mobaynida ham o'z milliy va ma'naviy, diniy qadriyatlariga sodiq qoldi. Xalqimiz mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, andisha, or-nomus, milliy va diniy, ijtimoiy bag'rikenglik kabi fazilatlar ana shu davrlar sinovidan ham sharaf bilan o'ta oldi deb bugun baralla aytishga xaqimiz, albatta.

Fikrimizcha xuddi moddiy buyumlar singari madaniyat, ma'naviyat, mafkuraviy hodisalar ham ma'lum inersiya kuchiga ega ekan. Bir paytlar, mustamlakachilar tayziqi, kommunistik mafkura asosida yaratilgan, bizning tafakkur tarzimizga, milliy qadriyatlarimizga, an'analarimizga zid bo'lgan

FALSAFA

san'at va badiiy asarlarning bugungacha sahnadan tushmay kelayotganligini boshqacha izohlab bo'lmaydi.

Yurtimizda 73 yil hukmronlik qilgan umummulkchilik g'oyalari, garchi xalqimizning e'tiqodi, turmush tarzi, islom ruknlariga mutlaqo zid, teskari bo'lsa-da, ammo bu hukmronlik, bu g'oyalar mutlaqo izsiz bo'lmadi, mustaqillikka erishganimizdan keyinham mutlaqo izsiz yo'qolib ketmadi. Mustamlakachilar qoldirib ketgan muammolar, ular teskari aylantirib kelgan iqtisodiy hayotdagi ziddiyatli tushunchalar, qarashlar hatto bugun ham bizga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotganligi hech kimgasir emas. Masalan: xalqimizning tabiatga, tevarak-atrofga bo'lgan munosabati masalasini olib ko'raylik. Bir paytlar bizning shahar-u-qishloqlarimizning toza-ozodaligi, suvlarimizning musaffoligi olamga mashhur edi. Hatto bundan 50-60 yil avvallari ham xalqimizda "suvga qarab tupurma, suvga qarab supurma" degan maqollar amal qilib kelganligini qariyalar og'zidan bugungi kunda ham eshitishimiz mumkin. Bugun esa tabiatga, tevarak atrofga bo'lgan munosabatimiz naqadar o'zgarib borayotganligini ko'rib ham achinasan, ham hayron qolasan! – qani bir paytlar suvni, tuproqni, havoni, olovni muqaddas bilib, e'zozlagan, buloq, chashmalarni muqaddas bilgan, suvga tupurgan bolalarni qulog'idan cho'zib nasihat qiladigan bobolar, momolar qayoqda qoldi? Hozir atrofni yig'ishtirib, axlat-xazonlarni yoqishni odat qilib oldilar. Daryo va kanallarga, yonginamizdan oqib turgan ariqlarga chelaklab, aravalab, mashina-mashinalab axlat to'kilyotganligi hech kimni ajablantirmay qo'ygan.

Xo'sh, bizning tabiatga, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatimiz nega bunchalar salbiy tomonga o'zgarib ketdi? Matbuot, radio, televideniye kabi ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, maqola va ko'rsatuvlarda bunga asosiy sabab sifatida xalqning ekologik madaniyati pastligi ko'rsatilayotganligi kishini ajablantiradi - axir bir paytlar xalqimizning ekologik madaniyati butun dunyo xavas qiladigan darajada bo'lganligini hamma yaxshi biladiku? Demak, muammo xalqimizning ekologik madaniyatida emas. Bizning fikrimizcha ekologik muammolarning kelib chiqishi sho'rolar davrida amalda bo'lgan mulkchilik munosabatlari va ishlab chiqarish usulidadir. Masalan, shaharlarimiz ko'chalarining notozaligi, axlat, chiqindilarning duch kelgan joyga tashlab ketilishi muammosini olaylik. Ko'pchilik mutaxassis, mutasaddilar "xalqning ma'naviyati, ekologik madaniyati past, nazoratni, tarbiyani kuchaytirish kerak, Germaniyada uncha jarima, Singapurda buncha jarima" degan gaplarni ro'kach qilishadi. Germaniya, Singapur, Turkiya kabi davlatlarda shaharu kent, qishloqlarining obodligi, toza, saranjom-sarishta ekanligi rost gap. Ammo ulardagi tozalik, saranjom-sarishtalikka ularning ekologik madaniyati yuqoriligi, aksincha bizdagi ahvolga bizning ekologik madaniyatimiz pastligi sababchidir degan gap ham xech bir aqlga to'g'ri kelmaydi.

Bizning fikrimizcha, mulkchilik shaklidagi tafovut ekologiyaga bo'lgan munosabatning turlichaligiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, sobiq sosializm mamlakatlarida xususiy mulkchilik qat'iyman qilingan edi. Boylarga, xususiy mulkchilikka qarshi olib borilgan tinimsiz targ'ibot odamlarda xususiy mulkchilikka nisbatan shubha, ishonchsizlik bilan qarash hissini shakllantirdi. Mana, kommunistik dunyoqarash hukmronligiga barham berilganiga 30 yildan oshgan bo'lsada, ayrim sohalarga xususiy mulkchilik kirib kelishi qiyin kechmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida turar joylarning aksar qismi tadbirkorlar qo'lida – ularning xususiy mulkidir. Xususiy mulkdor bo'lgan uy egasi-tadbirkor albatta bir narsa to'g'risida eng ko'p o'ylaydi-ya'ni o'z mulkidan keladigan daromadni oshirishni o'ylaydi. Daromadni oshirish yo'llaridan biri o'zi egalik qilayotgan turar-joy – binoga tegishli bo'lgan hududni toza-ozoda, saranjom-sarishta, obod va ko'rkam qilishdir. Deyarli hamma turar-joylar ana shunday tadbirkorlarga tegishli bo'lgan shahar ko'chalari, uy-joylar atroflari, binolarning tashqi ko'rinishi toza-ozoda, ko'rkam bo'lishi tabiiy.

Sobiq sotializm mamlakatlarida esa uy joylar davlatniki edi. Turar-joylarni xususiylashtirish - ya'ni undan tadbirkorlik uchun foydalanish mumkinligi esa kishilarning hatto hayoliga ham kelmas edi. Sobiq sotialistik tuzum barbod bo'lganidan keyin aholi foydalanib turgan, aslida davlat mulki hisoblangan turar joylar xususiylashtirildi. Ammo rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda bu erda har bir xonadon alohida kishi-oilaning mulkiga aylantirildi. Bir necha o'nlab kishilar egalik qiladigan ko'p qavatli uylar atrofni obod qilish, toza-ozoda saqlash esa imkonsiz ish ekanligi tushunarlidir.

Demak, shaharlarimiz ko'chalarining iflosligi, axlat uyumlarning duch kelgan joylarda paydo bo'lib qolishi xalqimizning ekologik madaniyati pastligidan emas, balki oddiy iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlovchi qonunlar, tamoyillar, tushunchalarning hali-hanuz yo'qligidan deb aytish to'g'riroq bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida yoshlarni ma'naviy yuksaltirish, bugungi zamon talabiga javob beradigan yoshlarni kamol toptirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida bir qator strategik yo'nalishdagi ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasining 4-yo'nalishi (adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish) 70-maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari borasida amalga oshiriladigan ishlar belgilab berildi.

Mazkur farmon asosida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qarorning 4-yo'nalishi va 70-maqsadida «Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash»[5] asosida maqsadlardan etib belgilangan. Mazkur maqsadni amalga oshirishda yoshlar orasida milliy mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqib tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Garchi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng muhim omili bo'lsa ham, ammo yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda hukumatimiz hamda yoshlar tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan maxsus tadbirlarning ham juda katta o'rni bor. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda juda ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 5 ta muhim tashabbus quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi;
- Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan;
- Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnikalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan;
- To'rtinchi tashabbus-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan;
- Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.[6]

Shuni aytish joizki 5 ta muhim tashabbusda nazarda tutilgan ishlar bundan ilgari ham davlatimiz va hukumatimiz tomonidan izchil va tizimli ravishda amalga oshirilib kelingan. Masalan: Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoniga muvofiq «Yosh kitobxon» tanlovi tashkil etildi. Tanlovda 2017-2021 yillarda 3 mldan ortiq yoshlar ishtirok etgan.[7]

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus esa ilgaridan amalga oshirilib kelinayotgan ishlarga yanada izchillik va tizimlilik baxsh etdi hamda har bir tashkilot, muassasalarning mazkur ishlarni amalga oshirishdagi o'rnini aniq belgilab berdi, har bir tashkilot, muassasa zimmasiga aniq vazifalar yuklatildi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish lozimki mentalitet ma'lum darajada barqaror tushunchadir. Uning o'zgarishi xalq, millat turmush tarzining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bugun butun dunyo, jumladan bizning yurtimizda ham shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Turgan gapki, bunday shiddatli o'zgarishlar aholi, xususan yoshlar mentaliteti, ma'naviy qadriyatlariga ham ta'sirsiz qolmaydi. Jamiyatimizda, xususan yoshlar ma'naviyati, mentaliteti va madaniyatida yuz berayotgan ba'zi o'zgarishlar haqida yuqorida bir necha o'rinlarda aytib o'tildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ayta olamizki, milliy mentalitetimizda, xususan yoshlar ongi, tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlar umuman olganda ijobiy baholanishi lozim. Chunki bu o'zgarishlar asosan ishlab chiqarish usuli va turmush tarzimizda yuz berayotgan o'zgarishlar tufayli sodir bo'lmoqda. Modimiki yoshlar ma'naviyati, madaniyati, mentalitetida yuz berayotgan o'zgarishlar aslida ishlab chiqarish usuli va turmush tarzining talablari asosida sodir bo'layotgan ekan, buni salbiy baholash mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, jamiyatimizda yuz berayotgan voqea-hodisalar nihoyatda ko'p qirrali va rang-barangdir. Ya'ni, jamiyatimiz, xususan, yoshlarimiz ongida yuz berayotgan o'zgarishlarni faqatgina ijobiy baholash ham o'ta biryoglamalikdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Назаров Н., Шопулатов А., Очилов О. Спорт социологияси. – Чирчиқ: 2018. – Б. 122.
2. Ортега-И-Гассет Хосе. Избранные труды. Серия: Тема – Москва: Весь мир, 2000. 704 с.
3. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2021 йил 19 январдаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2021. <https://yuz.uz/news/>
4. Хасанов Акрамжон Шухратович. Ёшлар ишлари агентлиги Марказий аппарати бош мутахассиси билан интервью// дала тадқиқоти 2022.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
6. <https://xs.uz/uz/post/prezident-yoshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-bosh-vaqtini-mazmunli-tashkil-etish-bojicha-muhim-vazifalarni-belgilab-berdi>.
7. <https://sputniknews-uz.com/20220408/yosh-kitobxon-tanlovi-goliblariga-spark-avtomashinasi-topshirildi-23854938.html>